

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2022- yil 19- oktabr kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
49 500 so'mdan 78 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Toshkent shahrining "Qo'yliq dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (49 500 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori" va Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 78 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorlarda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 50 000 – 60 000 so'mga sotilmoqda.



Qo'y go'shti
58 000 so'mdan 91 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (58 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Chirchiq shahrining "Chirchiq dehqon bozori", Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori" va Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 91 000 so'm) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorda qo'y go'shtini minimal 58 000 so'mga ham xarid qilish mumkin.



Kartoshka

2 500 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozorida tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan yirik bo‘lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 500 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozordagi arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan kartoshkani minimal 3 000 - 3 500 so‘mdan xarid qilish mumkin.

Piyoz

1 800 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”da (1 800 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (5 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda piyozni minimal 3 000 – 3 500 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

1 500 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)


Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”da (1 500 so‘m) qayd etilgan. Shuningdek, mazkur bozorda sabzini maksimal 4 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi esa, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Oloy dehqon bozori”da 5 000 so‘m darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorlarda sabzining minimal narxi 2 000 – 3 500 so‘mni tashkil etdi.

Tuxum

8 500 so‘mdan 15 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (8 500 so‘m).

Maksimal narxi esa, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 15 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 9 000 – 12 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 25 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori” (“Nukus-2” navli guruch, 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da 25 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorlarda guruchning minimal narxi 8 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

16 500 so‘mdan 30 000 so‘mgacha (litrl)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 16 500 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozordagi xususiy tadbirkorlar rastalarida o‘simlik yog‘ini 20 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 30 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda o‘simlik yog‘ini minimal 19 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Shakar

12 000 so‘mdan 17 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Yangiyo‘l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”, Farg‘ona shahrining “Markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori”, “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan rastalarda (12 000 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da (17 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorda shakarni minimal 12 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida**

MA’LUMOT*

2022- yil 19- oktabr holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	50000	68000	3000	2500	1500	11000	5000	19000	12000
		max	70000	68000	5000	4000	4000	13000	17000	22000	15000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	50000	65000	3000	2000	2500	9000	8000	19000	12000
		max	75000	85000	4500	3500	3500	14000	25000	25000	15000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	64000	60000	4000	3000	2300	11500	6000	18500	13000
		max	75000	65000	5000	3500	3000	14500	22000	28000	14500
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	3000	2500	2000	13000	8000	17000	12000
		max	75000	75000	4500	3000	3000	14000	20000	24000	14000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	80000	3300	1800	2200	13000	6000	19000	12000
		max	75000	80000	4000	2700	3000	13500	18000	27000	14000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	55000	65000	2800	2200	2000	10000	8000	17000	13000
		max	75000	75000	5000	3500	3000	14000	22000	24000	15000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	60000	75000	2500	2000	2000	11000	6000	16500	13000
		max	65000	80000	4500	4000	2500	14000	20000	20000	14000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	56000	62000	3000	2000	2000	8500	7500	18000	13000
		max	75000	78000	4500	3500	3000	13000	21000	24000	15000
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	60000	75000	4000	3000	3000	10000	7000	19000	13000
		max	70000	80000	5000	3500	4000	13000	20000	22000	15000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	60000	75000	3000	2000	2000	11000	6000	17333	12000
		max	75000	85000	4500	3000	3000	14000	20000	22600	15000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	55000	58000	3000	3000	3000	11000	6500	18000	12000
		max	68000	78000	5000	5000	5000	14000	19000	24000	13000
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	55000	58000	3500	2500	3200	10000	8000	18000	12000
		max	75000	80000	4000	3000	3500	11000	20000	22000	14000
13.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	55000	65000	3500	3000	2500	10000	8000	16800	12000
		max	75000	78000	5000	4000	3500	12500	16000	22500	14000
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	60000	80000	3500	3500	2500	12000	7500	19000	13000
		max	78000	80000	5000	5000	3500	15000	21000	24000	13000
15.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	2500	2000	11000	7000	19000	12000
		max	75000	85000	5000	3500	5000	13000	19000	24000	16000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	3500	3000	3500	10000	8000	19000	12000
		max	75000	90000	5000	4000	5000	14000	25000	30000	17000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	50000	58000	3000	3000	3000	9000	7500	19447	12000
		max	78000	91000	6000	5000	3800	15000	22000	25000	15500
18.	Toshkent shahar “Qo'yliq dehqon bozori”	min	49500	65000	3000	2000	2000	11000	7000	18400	12000
		max	75000	83000	5000	4000	4500	14000	22000	24000	16000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	3000	3500	9000	8500	19000	12000
		max	70000	85000	6000	4000	4000	13000	22000	30000	15000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.